

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAXMATOVA MUXAYYO ELBOBOYEVNA

**GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR JARAYONIDA IJTIMOYIY-
EKOLOGIK MUHOFAZANI TAKOMILLASHTIRISH SHARTLARI**

09.00.04 -Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Raxmatova Muxayyo Elboboyevna

Global ekologik muammolar jarayonida ijtimoiy-ekologik muhofazani
takomillashtirish shartlari.....3

Мухайё Рахматова Элбобоевна

Условия совершенствования социально-экологической защиты в процессе
глобальных экологических проблем.....23

Raxmatova Muxayyo Elboboyevna

Conditions for Improving Socio-Ecological Protection in the Context of Global
Environmental Issues45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ.
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAXMATOVA MUXAYYO ELBOBOYEVNA

**GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR JARAYONIDA IJTIMOYIY-
EKOLOGIK MUHOFAZANI TAKOMILLASHTIRISH SHARTLARI**

09.00.04 -Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fal1613 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Omonov Bahodir Nurillayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salomova Hakima Yusupovna
falsafa fanlari doktori, professor

Tilavov O‘ktamjon G‘ulomovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “30” aprel soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (866 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “15” aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil “7” aprel dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ekologik muammolar ko‘lamining globallashtirish jarayonlari bilan uyg‘un holda tobora kengayib borayotgani ekologik va ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi vazifalarni takomillashtirish masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Ekologik xavf-xatarlar butun insoniyat hayoti, salomatligi, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy xavfsizligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatayotgani ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda faqat atrof-muhitni muhofaza qilish bilan cheklanmay, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va institutsional sohalarini takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, davlat ekologik siyosatini jamiyatning barcha tarmoqlari bilan integratsiyalash, ekologik siyosatni zamonaviylashtirish, ijtimoiy-ekologik siyosatning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon ilm-fanida ekologik siyosat va ijtimoiy-ekologik siyosatni, ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirish, aholiga maqbul ekologik shart-sharoitlarni yaratib berish, atrof-muhitni barqarorlashtirishga oid ilmiy loyihalar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ekologik vaziyati og‘ir hududlarda atrof-muhit barqarorligini ta‘minlash, inson salomatligi va hayot sifati uchun qulay shart-sharoit yaratish, ekologik tahdidlarning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish va aholini himoya qilishga doir yangi nazariyalar, g‘oyalar va konsepsiyalar faqat tabiatni asrash emas, balki ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmatini, sog‘lom yashash huquqi va barqaror taraqqiyot tamoyillarini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishning ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ekologik ong va fuqarolik mas‘uliyatini rivojlantirish, taraqqiyotning insonparvar va barqaror modelini shakllantirish kabi muammolarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda iqlim o‘zgarishi, ekologik xatarlarning kuchayishi hamda tabiiy resurslarning kamayib borishi sharoitida ekologik vaziyatni yumshatish, tabiat va uning resurslaridan oqilona foydalanish, milliy ekologik munosabatlarni xalqaro umume‘tirof etilgan me‘yorlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Atrof-muhitni muhofaza qilishning institutsional muammolariga to‘xtaladigan bo‘lsak, hozirda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, ya‘ni iqtisodiyotni ekologiyalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. Chunki “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga zararli ta‘sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Shu o‘rinda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va uglerod neytraligiga erishish Yangi O‘zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini ta‘kidlamoqchiman”¹. Shu munosabat bilan mamlakatimizda ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirish, aholining ekologik madaniyatini oshirish hamda aholining yashash sifati va ijtimoiy himoyasini oshirish, shuningdek, barqaror rivojlanishning milliy modelini qaror toptirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2024. -Б.398.

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 31-maydagi PF-81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 3-oktyabrdagi PQ-3956-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-son “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2019-yil 27-maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ekologik munosabatlarning globallashuvi I.Arsentyeva, U.Bek, A.Grevseva, M.Vostrikova, R.Gaysina, Ye.Luneva, V.Hyosle, V.Shkoda asarlarida, ekologik vaziyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish masalalari V.Shtang, V.Vershinina, I.Zvolinskaya, A.Karanda tadqiqotlarida asoslab berilgan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasida ekologik globallashuv va ijtimoiy-ekologik muhofaza mazmuni, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni

²Арсентьева И.И. Глобализация и перспективы мирового развития//Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, 2008, №8.; Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну. –М.: Прогресс-Традиция, 2000. –384 с.; Гревцева А. Современные экологические угрозы: социально-философский анализ. –СПб.: Наука, 2017. –210 с.; Вострикова М. А. Рациональное природопользование как основа устойчивого развития региона // Экономика и экология. –2021. – № 3. – С. 95–102.; Гайсина Р.С. Экологическая ситуация: взгляды на сущность, образование и пути решения// Концепт, 2013, №6.; Luneva E. В. Экообразование как фактор формирования экологического сознания молодежи // Современные проблемы науки и образования. –2020. –№ 6. –С. 83–87.; Витторио Хёсле. Экология и философия. –М.: 1994. –С.137.; Шкодал В. В. Экологическое мышление в контексте глобальных вызовов // Экология и жизнь. –2022. –№ 2. – С. 14–18.; V.Y. Vershinina, L. Lyadova. Города — острова экологической надежды? // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2022. № 4. С. 354.; Зволинская И.А. Экологическая политика Российской Федерации и оборонная сфера// Вестник военного университета, 2011, №4.; Каранда А.В. Экологическая политика: понятие, виды, принципы// Молодой ученый, 2020, №3.

tadqiq qilgan olimlar qatoriga L.Garusova, U.Kuryanova, Ye.Matveyeva, I.Bashlakova, K.Berdenova, G.Drobot, Ye.Kochetkova, S.Kopilov, S.Sinsov, A.Ignatenko, S.Petoshina kabi tadqiqotchilarni kiritish lozim³.

O'zbekistonda ham ekologik soha bilan bog'liq ilmiy-falsafiy muammolar atroflicha tadqiq qilingan. Jumladan, H.Ahmedov, S.Mamashokirov, O.Qosimov, A.Qo'ldoshev, H.Aliqulov, S.Azamova ishlarida barqaror ekologik taraqqiyot va xavfsizlikning milliy, hududiy va global muammolari bayon etilgan. B.Alixonov, D.Sa'dullayev, G'.Tolibovning ilmiy ishlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarurligi asoslangan. Davlat ekologik siyosatining iqtisodiy mexanizmlari A.Abdullayev, S.Samayilov dissertatsiyalarida aks ettirilgan. Respublikamizda ekologik madaniyatning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganishda A.Berdimurodova, Sh.Mahmudova, S.Sanginov, E.Usmonov, O'.Tilavov, E.Hoshimova kabi olimlarning dissertatsiyalari natijalari diqqatga sazovor. Z.Adilov, S.Kistaubayev Sh.Samanova, Sh.Babayev, T.Mirzayev, R.Ro'ziyev dissertatsiyalarida Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolar va davlat ekologik siyosatining ijtimoiy masalalari tahlil qilingan. H.Salomova, Y.Shodimetov, B.Omonov asarlarida ekologik barqarorlikka erishishning zamonaviy yo'llari ko'rsatilgan. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash institutsional tizimining funksional integratsiyasiga bog'liq masalalar N.Ibragimova, R.G'ulomovaning ilmiy ishlarida tahlil qilingan⁴.

³Гарусова Л.Н., Курьянова У.Ю. Политика и законодательство США в экологической сфере// Труды Института истории, археологии и этнографии ДВО РАН, 2019, №24.; Курьянова И. В., Тюлин А. С. Города — острова экологической надежды? // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2022. №4. С. 354.; Матвеева Е.В. Институционализация экологических движений Европы: от появления общественных организаций до политических партий// Вестник Томского государственного университета, 2016, № 413.; Башлакова О. И. Экологическое образование государственных служащих // Научное обозрение. Серия 2: Гуманитарные науки. 2012. № 5. С. 35–45.; Берденова К.А., Штанг В. В., Синцов С.В. “Зелёная” экономика как двигатель устойчивого развития // Сибирский торгово-экономический журнал. 2012. № 15. С. 4–7.; Дробот В. И. Индикация состояния природных экосистем и нормирование // Тез. докл. Междунар. конф. “Фин-угор мир: состояние природы и регион. стратегия защиты окруж. Среды”, датан/д.; Kochetkova E. Technological style of production and ecology in USSR in 1940–1950es: the example of Karelian Isthmus // ResearchGate. 2018–2019.; Kopylov S.M. *Formation of Global Environmental Policy and International Regimes of International Environmental Management: Per Aspera Ad Astrum*, Science Journal of Volgograd State University. Jurisprudence, 2015.; Игнатенко А.Ю. Экологическая политика и образование в Соединенных Штатах Америки// Экология и безопасность в техносфере: современные проблемы и пути решения. –Томск: ТПУ, 2015.; Петошина С.И. Отчуждение как социокультурный феномен и понятие социально-философского анализа: автореферат дис. ... кандидата философских наук. – Архангельск: 2010. — 22 с.

⁴Ahmedov H. Barqaror ekologik taraqqiyotning ijtimoiy-falsafiy asoslari: falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2016. –198 b.; Mamashokirov S. Ekologik xavfsizlik va jamiyat taraqqiyoti: falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent, 2013. –174 b.; Xo'janazarov U. Ekologik muammolar va global xavfsizlik: falsafiy tahlil. – Qarshi: Nasaf, 2018. –193 b.; Qosimov O. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va ekologik xavfsizlik. –Toshkent, 2017. –210 b.; K'uldoshev A. Markaziy Osiё davlatlarida ekologik muosabatlarini bosqari-shning demokratik va humanistik tamoyillari. –T.: “Fan”, 2014.; Aliqulov X.A. Globallashuv sharoitida ekologik xavf-xatarini oldini olishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari. Дис.. –T.: ЎЗМУ.2024.; Azamova S.A. Ekologik globallashuv sharoitida O'zbekiston umumta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati: Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. –Buxoro: BuxDU, 2024.; Abdullayeva G. Xalqaro ekologik hamkorlikning nazariy asoslari. –Toshkent, 2020. –180 b.; Alixonov B. Ekologik barqarorlik va xalqaro institutlar: monografiya. – Toshkent: Adolat, 2015. –222 b.; Sa'dullayev D. Global ekologik muammolar va O'zbekistonning strategiyasi. – Nukus, 2021. –187 b.; Tolibov G'. O'zbekiston va BMT ekologik dasturlarining uyg'unligi. –Toshkent, 2020. –168 b.; Abdullayev A. Ekologik siyosatning iqtisodiy mexanizmlari: iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017. –174 b.; Samayilov S. O'zbekistonning ekologik siyosatida investitsion mexanizmlar. –Toshkent, 2020. –188 b.; Berdimurodova A.K. Davlat ekologik madaniyatining ijtimoiy falsafiy asoslari: dissertatsiya. – Toshkent, 2020. –160 b.; Mahmudova Sh.L. Ekologik ong va ijtimoiy jarayonlar. –Toshkent, 2019. –155 b.; Sanginov S. Ijtimoiy ongda ekologik qadriyatlar tizimi. –Andijon, 2021. –174 b.; Usmonov E.M. Ekologik tarbiya va madaniyat:

Mazkur yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar nazariy-metodologik ahamiyatga ega hisoblanadi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda ekologik muammolar ko‘proq tabiiy-ilmiy yoki iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo‘lib, ijtimoiy-ekologik muhofaza ijtimoiy falsafa prizmasi orqali yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, global miqyosdagi ekologik tahdidlarning ijtimoiy struktura barqarorligiga ta’siri va bu jarayonda ijtimoiy-ekologik himoyani takomillashtirishning obyektiv va subektiv shartlari o‘rtasidagi mutanosiblikni aniqlash dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shu asoslarga ko‘ra, mazkur muammo tadqiqot obyekti qilib olindi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Shahrizabz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuv: axborot texnologiyalari va interfaol usullar” (2022-2026 yy) mavzusidagi tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi global ekologik inqiroz sharoitida ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirish yo‘llarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy-ekologik muhofaza tushunchasining mazmun-mohiyatini hamda ekologik muammolarning globallashuv xususiyatlari va ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta’sirini tadqiq qilish;

zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-ekologik muhofazaning funksiyalarini tizimlashtirish hamda xavfsizlikni ta’minlash va mo‘tadil rivojlanishga aloqadorligini ochib berish;

O‘zbekistonning ijtimoiy-ekologik muhofazani ta’minlash borasidagi o‘ziga xos tajribasini umumlashtirish;

milliy ijtimoiy-ekologik tizim barqarorligiga tahdid solayotgan omillarni tasniflash va ularning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashtirish;

ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishda ekologik siyosatni ijtimoiy dasturlar bilan integratsiyalash;

ijtimoiy-ekologik muhofaza siyosatini mamlakatning taraqqiyot strategiyalari bilan integratsiyalash zarurati, mexanizmlarini hamda imkoniyatlarini asoslab berish;

nazariy asoslar. –Samarqand, 2020. –183 b.; Тилолов Ў.Ф. Глобал барқарор тараққиёт тизимида экологик партиялар фаолиятини такомиллаштириш стратегияси. –Ташкент, 2020. –273 б.; Hoshimova E.S. Ekologik qadriyatlar va ijtimoiy ong. –Toshkent, 2023. –169 b.; Adilov Z.Y. Orol muammosi va inson omili. –Toshkent, 2020. –190 b.; Kistaubaev C.Y. Шахс экологик дунёқарашини шакллантиришда миллий кадрларнинг роли: Фалс.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. –Самарқанд: СамДУ, 2019; Samanova Sh.B. Ekologik muhit va sog‘liq muammolari. –Xorazm, 2022. –180 b.; Azamov X. Orolbo‘yi ekotizimining saqlanishi. –Nukus, 2020. –186 b.; Babayev Sh.R. Ekologik inqiroz va mahalliy aholi muammolari. –Toshkent, 2019. –177 b.; Mirzayev T.R. Orolbo‘yi va ijtimoiy xavfsizlik. –Nukus, 2021. –174 b.; Ro‘ziyev R. Orolbo‘yi mintaqaviy rivojlanishida ekologik strategiyalar. –Toshkent, 2020. –182 b.; Саломова Х.Ю. Ижтимоий экология асослари. –Тошкент: Фан ва технология, 2004. –156 б.; Шодиметов Ю.Ш. Здоровый образ жизни: социально-гигиенические и экологические проблемы. –Ташкент: Ибн Сино, 1990. –111 с.; Омонов Б.Н. Ўзбекистоннинг Оролбўйи минтақасидаги экологик сиёсати. –Тошкент: Фан, 2014. –144 б.; Ибрагимова Н.А. Экологик хавфсизликни таъминлаш институционал тизимининг функционал интеграцияси: Фалс. ф. ф. д. (PhD) дисс. автореф. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2019. –44 б.; G‘ulomova R.B. Davlat ekologik siyosatining ijtimoiy mohiyati // O‘zMU xabarлари. –2024. –№ 1/3/1. –Б. 94.

O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishning institutsional va strategik, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy yo‘nalishlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ekologik globallashtirish sharoitida davlat ekologik siyosati va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-ekologik munosabatlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini global ekologik muammolar kuchayishi sharoitida ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirish asoslari, mexanizmlari hamda O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash shartlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, sinergetik, statistik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-ekologik muhofazaning shakllanish va rivojlanish jihatlari (global ekologik muammolarning kuchayishi, sivilizatsion taraqqiyotning texnogen bosqichga o‘tishi hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi), ekologik siyosat, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy himoya kabi kategorial va funksional xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotiga inson salomatligi va hayot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror modelini shakllantirish kabi ta’sirlari hamda global xususiyatlari aniqlashtirilgan;

ijtimoiy-ekologik muhofazaning aholi salomatligi, munosib turmush sifatini ta’minlash kabi ijtimoiy, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini qaror toptirish kabi iqtisodiy, ekologik siyosatni barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish kabi siyosiy, ekologik adolat mezonlarini mustahkamlash kabi huquqiy, ekologik madaniyat va tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish kabi ma’naviy-madaniy funksiyalari hamda davlat xavfsizligini ta’minlashdagi preventiv-barqarorlashtiruvchi, strategik-himoyaviy va milliy manfaatlarni saqlovchi roli ochib berilgan;

O‘zbekistonning ijtimoiy-ekologik muhofazani ta’minlashdagi Orolbo‘yi hududini tiklash va ko‘kalamzorlashtirish, yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha institutsional islohotlar va xalqaro majburiyatlarini milliy siyosatga integratsiya qilish kabi tajribalari, ekologik muammolarni anglash va xalqaro majburiyatlarga qo‘shilish, milliy institutsional va normativ bazani shakllantirish, “yashil” rivojlanish bosqichlari, o‘rmonlashtirish, muhofaza etiladigan hududlarni maxsus dasturlar asosida rivojlantirish kabi yutuqlari, xalqaro ekologik maydonda tashabbuskor davlat, xalqaro “yashil” hamkorlik subyekti sifatidagi o‘rni dalillangan;

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishning ijtimoiy-institutsional zamonaviy modeli hamda uning barqarorlik, preventivlik, tizimlilik, integratsiya, davlat va jamiyat hamkorligi, mas’uliyat, ilmiylik va hududiy differentsiatsiya tamoyillari hamda ekologik xavfsizlik, ijtimoiy himoyalanganlik, boshqaruv samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, huquqiy ta’minlanganlik, jamoatchilik ishtiroki va ma’naviy-ekologik madaniyat kabi mezonlari asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishga doir konseptual yondashuvlar asosida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat, ekologik tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga tatbiq etish uchun ekologik xavflarni barvaqt aniqlash, aholining ekologik himoyalanganlik darajasini baholash va hududiy muammolarga mos profilaktik choralar ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan;

ijtimoiy-ekologik muhofazani baholash tizimida hududlar kesimida ekologik xavfsizlik holatini tahlil qilish, aholi salomatligi va yashash muhitiga ta’sir etuvchi omillarni baholash, ijtimoiy-ekologik siyosat samaradorligini monitoring qilish kabi mezonlar tegishli boshqaruv organlari hamda statistic tahlil jarayonlarida amaliy mexanizm sifatida xizmat qilishi isbotlangan;

O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishning fuqarolarni ekologik ahamiyatga molik ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga jalb qilish, mahalla, ta’lim muassasalari, NNT va ommaviy axborot vositalari orqali aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik mas’uliyatni kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish hamda ekologik jihatdan muammoli hududlarda aholi bilan ishlash, targ‘ibot va profilaktika dasturlarini tuzish kabi ustuvor yo‘nalishlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar birlamchi manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi; tushuncha definitsiyasi, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi; tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g‘oyalardan ijtimoiy-ekologik muhofaza tushunchasini keng tadqiq etishda, inson, jamiyat va tabiat munosabatlarini barqaror rivojlanish, ekologik adolat, ijtimoiy himoya va xavfsizlik tamoyillari asosida uyg‘unlashtiruvchi kompleks ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida asoslab berishda, global ekologik muammolar sharoitida ijtimoiy-ekologik muhofazaning shakllanish va rivojlanishi, ekologik xavfsizlik, ekologik siyosat, ijtimoiy himoya va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni aniqlashda, shuningdek ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishning tarkibi, tamoyillari, funksiyalari, baholash mezonlari va ijtimoiy himoya masalalarini tadqiq etishda nazariy-metodologik manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan nazariy xulosalar, amaliy takliflar va konseptual tavsiyalardan Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishga oid davlat siyosati, hududiy ekologik dasturlar, ijtimoiy himoya mexanizmlari hamda ekologik xavfsizlik strategiyalarini takomillashtirishda, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat, ekologik tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla tizimining

aholining ekologik ongi va ma'naviy-ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot, ta'lim va jamoatchilik dasturlarini takomillashtirishda hamda ekologik xavfsizlik holatini monitoring qilish, aholi salomatligi va yashash muhitiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, hududiy boshqaruv samaradorligini baholash faoliyatida, shuningdek, ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy falsafa", "Barqaror rivojlanish", "Ekologik madaniyat" kabi fanlar mazmunini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Global ekologik muammolar jarayonida ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirish shartlari bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish borasida olingan natijalar asosida:

ijtimoiy-ekologik muhofazaning shakllanish va rivojlanish jihatlari (global ekologik muammolarning kuchayishi, sivilizatsion taraqqiyotning texnogen bosqichga o'tishi hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi), ekologik siyosat, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy himoya kabi kategorial va funksional xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotiga inson salomatligi va hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror modelini shakllantirish kabi ta'sirlari hamda global xususiyatlariga oid ilmiy yangilik va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-sonli "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish" (2021-2022yy.) mavzusidagi amaliy ilmiy-tadqiqot loyiha doirasida beldilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 1-iyuldagi 04/11-8392-son ma'lumotnomasi). Natijada, aholining ekologik savodxonligini oshirish va ekologik madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga oid dasturlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

ijtimoiy-ekologik muhofazaning aholi salomatligi, munosib turmush sifatini ta'minlash kabi ijtimoiy, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini qaror toptirish kabi iqtisodiy, ekologik siyosatni barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirish kabi siyosiy, ekologik adolat mezonlarini mustahkamlash kabi huquqiy, ekologik madaniyat va tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish kabi ma'naviy-madaniy funksiyalari hamda davlat xavfsizligini ta'minlashdagi preventiv-barqarorlashtiruvchi, strategik-himoyaviy va milliy manfaatlarni saqlovchi roli aniqlashtirilgan nazariy xulosalari, taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi VI ustuvor yo'nalishining 6.2-bandida aks etgan - "Iqlim o'zgarishlari, ekologik bo'xronlar, Orol va ona tabiatni asrash zarurati" sohasiga mos ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarining dastur va ssenariylarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 21-iyundagi 2-13-21-3429-son ma'lumotnomasi). Natijada, ekologik madaniyatni oshirish, aholida barqaror rivojlanishga oid qarashlarni shakllantirish, yoshlarda ekologik mas'uliyatni kuchaytirish va jamiyatda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga hamda ushbu muammolarni oldini olishga qaratilgan dasturni tayyorlashda muhim nazariy-amaliy manba sifatida xizmat qilgan;

O'zbekistonning ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlashdagi Orolbo'yi hududini tiklash va ko'kalamzorlashtirish, yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha institutsional islohotlar va xalqaro majburiyatlarini milliy siyosatga integratsiya qilish kabi tajribalari, ekologik muammolarni anglash va xalqaro majburiyatlarga qo'shilish, milliy institutsional va normativ bazani shakllantirish, "yashil" rivojlanish kabi rivojlanish bosqichlari, o'rmonlashtirish, muhofaza etiladigan hududlarni maxsus dasturlar asosida rivojlantirish kabi yutuqlari, xalqaro ekologik maydonda tashabbuskor davlat, xalqaro yashil hamkorlik subyekti sifatidagi o'rni isbotlangan ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Ekologik partiyasining dasturiy vazifalarini ishlab chiqish hamda "Biz kelajak uchun javobgarmiz!" g'oyasini o'zining bosh shiori hisoblagan ustuvor yo'nalishlari va 2025-yilga mo'ljallangan Harakatlar dasturida belgilab olgan vazifalarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Ekologik partiyasining 2025-yil 10-iyundagi 02/211-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, partiyaning dasturiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda keng foydalanilib, saylovoldi dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishning fuqarolarni ekologik ahamiyatga molik ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga jalb qilish, mahalla, ta'lim muassasalari, NNT va ommaviy axborot vositalari orqali aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik mas'uliyatni kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish hamda ekologik jihatdan muammoli hududlarda aholi bilan ishlash, targ'ibot va profilaktika dasturlarini tuzish kabi ustuvor yo'nalishlari asoslangan takliflardan Qashqadaryo viloyat teleradiokanali "Oltin voha" radiosining 2025-yil 10-iyul kuni e'firoga uzatilgan "Ochiq muloqot" eshittirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokanalining 2025-yil 11-iyuldagi 17-05/113-son ma'lumotnomasi). Natijada, fuqarolarning ekologik madaniyatini shakllantirish, ularda atrof-muhit muhofazasiga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish hamda jamoatchilikning ekologik siyosatda faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 157 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining

ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt, predmet, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Globallashuv sharoitida ijtimoiy-ekologik muhofaza qilishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida ekologik muammolar jarayoni, ijtimoiy-ekologik muhofaza tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, ekologik muhitga ta‘sir etish holati, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy-madaniy munosabatlardagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ekologik globallashuv ta‘sirida ijtimoiy-ekologik muhofazaga ehtiyojning ortib borayotgani, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda ziddiyatning shakllangani ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan. Ijtimoiy-ekologik muhofaza ekologik muhofazaning, ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi ekanligi, unga bo‘lgan ehtiyojning kundan-kunga ortayotgani izohlangan.

Tadqiqotda ekologik globallashuv tushunchasining kelib chiqishini mutaxassis olimlar turlicha talqin qilishadi va mavjud adabiyotlar talqini ham shunga asosan ifodalangan. Masalan, bir guruh tadqiqotchilar inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda konkretlikning (oqilona yoki nooqilonalikni aniqlashtirilmalik) mavjud emasligi ekologik globallashuvni keltirib chiqarganini ta‘kidlashsa⁵, ayrimlari ekologik vaziyat tahliliga diqqatni jamlaydilar⁶, qolganlari esa, inqirozli jarayonlar (ekologik muammolar)ning bosh sababchi ekanligini ko‘rsatishadi⁷. Ammo ularning birortasi ekologik globallashuvning yuzaga kelishida bir-birlarining fikrlarini inkor etishmaydi, aksincha, ekologik muhitning bir-butunligi uchala qarashlarda aks etayotgan jarayonlar asosida umumlashadi, deb bilishadi. Ya‘ni, ekologik muhit uch tarkib: **ekologik munosabatlar, ekologik vaziyat, ekologik muammolardan** iboratligini qayd qilishadi⁸. Ushbu holatlarning o‘zaro integratsiyasi va unifikatsiyasi ekologik globallashuvni tashkil etadi, degan xulosaga to‘xtalamiz.

Ekologik muammo – tabiat va uning elementlaridagi yoki inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning salbiy o‘zgarishi natijasida keladigan xavf deb

⁵Андреев И.Л. Происхождение человека и общества. –М.: Мысль,1988; Абдуллаев З. Экологическое отношение и экологическое сознание. –Т.: Ўзбекистон, 1990; Руденко А.А. Экологические отношения как объект административного проступка и преступления // Общество и право, 2011. №3. –С.165 –167; Соболев И. А. Общественно-экологические отношения как категория теории права // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России, 2012. №2. –С.46 –50; Қўлдошев А. Марказий Осиё давлатларида экологик муносабатларни бошқаришнинг демократик ва гуманистик тамойиллари. –Т.:Фан, 2014.

⁶Ахмедов А. Экологик назорат: назария, методология ва амалиёт. –Т.: Адабиёт учкунлари, 2017; Бердимурадова А.К. Философско-методологический анализ современной экологической ситуации на пороге XXI века. –Т.: Фан, 1999; Кочуров Б.И. Экодиагностика и сбалансированное развитие. –М.: –Смоленск: Маджента, 2003; Саломова Х.Ю. Ижтимоий экология асослари. –Т.: Фан ва технология, 2004; Стурман В.И. Экологическое картографирование. –Ижевск: Удмурт. ун-т, 2000.

⁷Айматов А.Қ. Шахнинг табиятга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик онгинг роли: Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф. –Самарқанд: СамДУ, 2019; Кистаубаев С.У. Шах экологик дунёкарашини шакллантиришда миллий кадрларнинг роли: Фалс.ф.д. (PhD) дисс. автореф. –Самарқанд : СамДУ, 2019; Саманова Ш.Б. Экологик толерантликнинг ижтимоий-фалсафий асослари: Фалс.ф.д. (PhD) дисс. автореф. –Самарқанд: СамДУ, 2019; Яздонов З.Ш. Ўзбек халқ экологик маданияти анъаналарини тиклаш ва ривожлантириш тенденциялари: Фалс.ф.д. (PhD) дисс. автореф. –Самарқанд: СамДУ, 2019.

⁸Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta‘siri. –Т.: 2021. 136 b., –В.15.

baholangan. Shuningdek, ekologik muammo tabiat, ekosistema yoki jamiyat uchun zararli bo'lgan, inson faoliyati yoki tabiiy jarayonlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy va atrof-muhit muammolarining umumiy yig'indisidir.

Dissertant fikricha, ekologik muammolar ijtimoiy jihatdan qaraganda faqatgina tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni emas, zamonaviy tafakkur va ma'naviy qadriyatlarining inqirozini ham aks ettiradi. Ushbu muammolarni anglash uchun bir nechta konsepsiyalarni ko'rib chiqish zarur bo'ladi, jumladan: antropotsentrizm va ekotsentrizm; texnologiya va progressning paradoksi; kosmopolitlik va umuminsoniylik mas'uliyat; postgumanizm konsepsiyalari. Jumladan:

- antropotsentrizm va ekotsentrizm konsepsiyasi tabiat va borliqning barcha tarkiblari insonga tegishli, faqatgina inson ularni nazorat qila oladi degan tushunchaga asoslanadi. Bu tabiatdagi barcha in'omlar insonni baxtli qilish uchun yaratilganini ilgari suruvchi ta'limotdir. Ammo shunga qarshi ekotsentrizm konsepsiyasi ham shakllandi. Bu ta'limotda inson tabiatning "egasi" emas, balki uning bir bo'lagi ekanligi uqtiriladi. Shunga ko'ra, inson va tabiat o'rtasidagi me'yor saqlanishi shartligi asosiy omil deb qaraladi.

- texnologiya va progressning paradoksi konsepsiyasi texnokratik jamiyatning rivojlanishi insonning to'g'ri yo'ldan (ma'naviy hayoti va kelajak tomon) borayotganiga biroz shubhali jarayon ekanligini nazarda tutadi. Texnologiya va progressning paradoksi tushunchasi texnologik taraqqiyotning jamiyatga bir vaqtning o'zida ham manfaatli, ham zararli ta'sir ko'rsatishini anglatadigan tushunchadir. Boshqacha aytganda, bu paradoks, texnologik innovatsiyalar va yangi yutuqlar inson hayotini yaxshilashga qaratilgan bo'lsa-da, ularning oqibatlari ba'zida kutilmagan muammolarga ro'baro' qilishini ko'rsatadi.

- kosmopolitlik va umuminsoniylik mas'uliyati konsepsiyasi har bir millat, davlatning dunyo ekologik siyosati integratsiyasini kuchaytirish, umuminsoniyat manfaatlaridan kelib chiqib tabiatga oqilona munosabatda bo'lish g'oyasi ilgari suriladi. Davlatlar va kompaniyalar tabiiy resurslardan foydalanganda ekologik xavf ostida bo'lgan insonlar manfaatini himoya qilishi va ijtimoiy-ekologik oqibatlari hisobga olinishi talab etiladi.

- postgumanizm konsepsiyasi insonning tabiatdan ustunligini inkor etadi. Tabiat insonning hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'lgan hudud, undan boshqa joy insonga yashash imkoniyatini berolmaydi. Bu simbioz tabiatning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini saqlash va texnologik taraqqiyotning barqarorlashishi uchun muhim degan qarashlarni qamrab oladi. Shu jihatdan qaraganda, ekologik muammolarning kuchayishi aynan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan deyish biroz g'aliz xulosalarni keltirishi mumkin. Natijada ekologik muammolarning kuchayishi quyidagilarda o'z aksini ko'rsatdi:

birinchidan, industrializatsiyaning tabiatga ta'sirida;

ikkinchidan, tabiiy resurslarning qisqarishida;

uchinchidan, qishloq xo'jaligidagi yerlarning buzilishida;

to'rtinchidan, shaharlashuv va urbanizatsiyalashuvda.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ekologik muammo tabiat va uning elementlaridagi yoki inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning salbiy o'zgarishi natijasida keladigan xavfdir. Shuning uchun ijtimoiy-ekologik muhofaza ekologik

xavflarning oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni saqlash va kelajak avlod uchun munosib hayot sharoitini yaratishga qaratilgan. U insonni tabiatga iste'molchi sifatida emas, balki mas'ul hamkor sifatida qarashga undaydi. Ijtimoiy ekologik muhofaza faqat tabiatni asrash va resurslarni tejashga qaratilmagan, uning asosini inson salomatligi, aholiga barcha shart-sharoitlarni yaratish va ijtimoiy himoya bilan bog'liq kompleks vazifalarni qamrab oladi. Ijtimoiy-ekologik muhofaza jamiyatda ekologik ong, ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Agar ijtimoiy-ekologik muhofaza samarali yo'lga qo'yilsa, inson va tabiat o'rtasidagi ziddiyat kamayadi, jamiyatning kelajakka ishonchi esa yanada mustahkamlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ekologik inqirozsharoitida ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishning ahamiyati”** deb nomlanib, O'zbekistonning ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlash sohasidagi tajribalari, ekologik faoliyati, erishgan yutuqlari, xalqaro munosabatlardagi o'rni, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan nufuzli tashkilotlarning Orolbo'yi mintaqasidagi halokatni barqarorlashtirish borasida hamkorlikka erishgani ilmiy va rasmiy manbalar orqali tahlil qilingan.

Eng katta ekologik xavf-xatarlarning kelib chiqishi va ularning O'zbekistonga salbiy ta'sirining namoyon bo'lishi:

birinchidan, yerning sifat tarkibi pastligi va cheklangan hududlarning ortib borayotganida;

ikkinchidan, suv zaxiralarining, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining taqchilligi, qurg'oqchilik yillarining takroriyliigi, suv omborlarining eskirayotganida;

uchinchidan, Orol dengizi qurishining tezlashgani, unga suvning umuman tushmay qolayotgani, mintaqada ekologik-gumanitar yordamga muhtojlikning ortishi, tabiiy muhitning buzilishi, changli va tuzli bo'ronlarning tez-tez uchrayotganida⁹ kuzatiladi.

Dissertant fikricha, ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlash davlat va uning fuqarolari ekologik intellektining takomili bilan bog'liq. Aholining ekologik madaniyati atrof-muhit barqarorligini ta'minlashda birlamchi omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, ekologik intellekti takomillashgan fuqarolar davlatning boshqaruv va ijro organini tashkil etadi. Aksincha, davlatning boshqaruv va ijro organi fuqarolarni ekologik meyorlarga amal qilishga va ekologik bilimni oshirishga yo'naltiradi. Bo'ysunmaganlar belgilangan qonunlarga ko'ra, jazolanadilar. Mana shu uch tomonlama “tabiat-inson-davlat” munosabatlari ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda O'zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlash davlat ekologik siyostining asosini tashkil etishi va quyidagi omillar uni amalga oshirishga to'sqinlik qilishi asoslab berilgan: birinchisi, tabiiy ekologik omillar; ikkinchisi,

⁹Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: “Ўзбекистон”, 1998. - Б. 509–521.

ijtimoiy omillar; uchinchi, iqtisodiy omillar; to'rtinchi, siyosiy omillar; beshinchi, huquqiy omillar; oltinchi, ma'naviy-madaniy omillar.

Dissertatsiyada ekologik muammolarning chuqurlashuvi sharoitida jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash, aholi salomatligi va hayot sifatiga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etish, davlatning ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan institutsional salohiyatini kuchaytirish masalalari tadqiq etilgan. Shu bilan birga, mamlakat ijtimoiy-ekologik muhofazasi tizimiga tahdid solayotgan ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional omillar tahlil qilinib, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri ochib berilgan. Xususan, ekologik muammolarni bartaraf etish, aholi uchun sog'lom va xavfsiz yashash muhitini yaratish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, Orolbo'yi hududida ekologik barqarorlikni tiklash, ko'kalamzorlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish borasidagi amaliy chora-tadbirlar ochib berilgan.

O'zbekiston ijtimoiy-ekologik muhofazasi tizimiga tahdid solayotgan asosiy omillar - iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi, havo, tuproq va suvning ifloslanishi, cho'llanish, bioxilma-xillikning qisqarishi kabi tabiiy-ekologik omillar bilan bir qatorda urbanizatsiya, demografik bosim, resurslarga nisbatan iste'molchilik munosabati, ekologik madaniyat va mas'uliyatning yetarli darajada shakllanmagani, institutsional muvofiqlashuv muammolari va ekologik xavflarni barvaqt baholash mexanizmlarining to'liq emasligi kabi ijtimoiy omillardan tashkil topadi. Ushbu tahdidlar nafaqat atrof-muhit holatiga, balki aholi salomatligi, ijtimoiy barqarorlik, hududiy rivojlanish va davlat xavfsizligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada ijtimoiy-ekologik muhofazani takomillashtirishda profilaktik yondashuv, tizimli boshqaruv, jamoatchilik ishtiroki va ekologik madaniyatni kuchaytirish zarurati ortib boradi. Mamlakatda ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlash borasida muayyan tajriba, institutsional asos va amaliy islohotlar shakllangan bo'lsa-da, global ekologik tahdidlar, iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi, ekologik madaniyat yetarli emasligi va boshqaruv tizimidagi ayrim nomutanosibliklar mazkur sohani yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlash borasida olib borgan faoliyati davomida mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari bosqichma-bosqich rivojlangan, ya'ni dastlab huquqiy poydevor yaratilgan, keyinchalik nazorat va tartibga solish mexanizmlari kuchaytirilgan, so'ng strategik konsepsiyalar va xalqaro integratsiya yo'nalishi kengaygan. O'zbekiston misolida ijtimoiy-ekologik muhofaza zamonaviy taraqqiyotning ajralmas sharti, milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi va kelajakni asrashga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-ekologik muhofazani samarali boshqarish va monitoring tizimini takomillashtirish, ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlash jarayonining samaradorligini oshirish uchun monitoring va boshqaruv tizimlarini kompleks ravishda rivojlantirish zarur. Bu aholi va davlat organlarining ekologik vaziyatni doimiy kuzatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarning oldini olish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Fuqarolarni ekologik ong va mas'uliyatga jalb etish, barqaror ijtimoiy-ekologik muhofaza faqat davlat siyosati orqali emas, balki fuqarolar faol ishtirokida amalga

oshiriladi. Aholini ekologik bilimlar, mas'uliyat va amaliy ekologik harakatlarga jalb qilish orqali "yashil makon" loyihalari, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni tejash kabi chora-tadbirlar keng tatbiq etiladi. Shu yo'l bilan ijtimoiy-ekologik tizimlarning samaradorligi ortadi va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan model shakllanadi.

Dissertatsiyaning **"O'zbekistonda ijtimoiy-ekologik muhofazani rivojlantirish imkoniyatlari va takomillashtirish yo'llari"** deb nomlangan uchinchi bobida ekologik muammolarning oldini olishning zamonaviy uslublaridan foydalanish, xorijiy tajribalar asosida milliylikdan kelib chiqib yondashish, ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlashda yaqin va uzoq yillarga mo'ljallangan dasturlarni yaratish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan yo'nalishlar va bandlarning mamlakatda ijtimoiy-ekologik muhofazani amalga oshirish jarayoniga ijobiy ta'siri, erishilayotgan yutuqlar, mavjud kamchiliklar aniqlanib, ilmiy xulosalar chiqarilgan. Ijtimoiy-ekologik muhofazani ta'minlash borasidagi samarali natijalarga erishishda ekologik siyosatni ijtimoiy dasturlar bilan integratsiyalashtirish zaruriyati ilmiy tahlillar asosida aniqlashtirilgan. Ekologik siyosatni ijtimoiy dasturlar bilan integratsiyalashtirish yo'llari ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy-madaniy sohalarning yanada takomillashtirilishini ta'minlashga bog'liqligi xulosalanib, ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

O'zbekistonda ham ekologik muhit barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy-ekologik muhofazani kuchaytirish borasida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi" tarkibida alohida davlat ekologik siyosati konsepsiyasi yaratilgan¹⁰. Strategiyada amalga oshirilishi zarur bo'lgan yo'nalishlar va ularga tegishli bandlar 2030-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi.

Dissertatsiyada davlat ekologik siyosatini ijtimoiy dasturlar bilan integratsiyalashtirish deganda – ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining ijtimoiy rivojlanish va farovonlikni oshirishga doir dasturlar bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi tushunilishi ta'kidlanadi. Ushbu integratsiya, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy omillarni hisobga olib atrof-muhitni muhofaza qilish, kambag'allikni kamaytirish, barqaror ish o'rinlari yaratish, aholiga maqbul ekologik shart-sharoitlarni yaratish, ularning ekologik bilim va madaniyatini oshirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan amaliy choralar ko'rishni anglatadi. Bu integratsiyaning asosiy maqsadi – ekologik va ijtimoiy muammolarni bir vaqtning o'zida hal qilish, bundan natija olish uchun barcha sohalarda o'zaro aloqalarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ekologik siyosatni ijtimoiy dasturlar bilan integratsiyalashtirishni rivojlantirish quyidagi (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy) sohalarni takomillashtirish talab etadi:

- birinchidan*, ijtimoiy sohani takomillashtirish;
- ikkinchidan*, iqtisodiy sohani takomillashtirish;
- uchinchidan*, huquqiy sohani takomillashtirish;

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тўғрисида" Фармони, // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

to'rtinchidan, ma'naviy-madaniy sohani rivojlantirish.

Bugun ekologik muhitni barqarorlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va uning zararlangan resurslari tabiiyligini qayta tiklash zaruriyati ham insonning o'z zimmasiga tushmoqda. Bu jarayonda ikkita yo'l mavjud: birinchi yo'lda, insoniyat o'zi tushunib va kelajak avlodlari manfaatini o'ylab, tabiat va uning resurslarini muhofazasiga oladi va barqarorligini ta'minlashda jonbozlik ko'rsatadi; ikkinchi yo'lda, tabiatga yanada zarar berishda va belgilangan meyorlarga amal qilmasdan, faqat bugunini va o'z manfaatlariga ruju qo'yishi oqibatida tabiat bilan birga fojiga ro'baru bo'ladi.

